



UO•K:02:004:005.963(575.1)

Xadichaxon ASATILLAYEVA,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tayanch doktoranti
E-mail: j.a.khadichakhan@gmail.com

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti, f.f.n S.Davlatov taqrizi asosida

ENHANCING THE DIGITAL COMPETENCIES OF LIBRARY PROFESSIONALS: CONTEMPORARY APPROACHES AND PRACTICAL STRATEGIES

Annotation

This article explores the relevance of digital competence in the library sector and analyzes modern methods and approaches to enhancing the digital competence of library professionals. The study examines international experience, competency standards developed by leading organizations, practical methods proposed in research, and several models of digital competence.

Key words: Library professional, digital competence, digital competence model, digital technologies, standards.

РАЗВИТИЕ ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БИБЛИОТЕЧНЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ

Аннотация

В данной статье рассматривается актуальность цифровой компетентности в библиотечной сфере, анализируются современные методы и подходы к развитию цифровой компетентности специалистов отрасли. В статье изучается международный опыт, стандарты компетенций ведущих организаций, прикладные методы, предлагаемые в исследованиях, а также рассматриваются несколько моделей цифровой компетентности.

Ключевые слова: Специалист библиотечной сферы, цифровая компетентность, модель цифровой компетентности, цифровые технологии, стандарты.

KUTUBXONA MUTAXASSISLARINING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA AMALIY USULLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada kutubxona sohasida raqamli kompetensiyaning dolzarbligi, soha mutaxassislarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy usullari, yondashuvlari tahlil etiladi. Maqolada jahon tajribasi, yetakchi tashkilotlarning kompetensiya standartlari, tadqiqotlarda ilgari surilayotgan amaliy usullar va bir necha raqamli kompetensiya modellari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Kutubxona mutaxassisi, raqamli kompetensiya, raqamli kompetensiya modeli, raqamli texnologiyalar, standartlar.

Kirish. Bugungi raqamli transformatsiya sharoitida kutubxona muassasalari nafaqat an'anaviy axborot manbalarini saqlovchi va tarqatuvchi joy sifatida, balki zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tayangan holda interaktiv va innovatsion axborot xizmati ko'rsatuvchi institutsiyalar sifatida qayta shakllanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, kutubxona sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar oldiga yangi, ilg'or bilim va ko'nikmalar, xususan raqamli kompetensiyalarni egallash va doimiy ravishda takomillashtirib borish vazifasini qo'yimoqda.

Jamiatimizda axborotni foydalanuvchilarga yetkazishda kutubxonalar katta rol o'ynaydi, axborot texnologiyalari va boshqaruv usullarining paydo bo'lishi munosabati bilan kutubxonachilik ham turli xildagi qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Sohada kechayotgan o'zgarishlarga mos tarzda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan so'nggi qonun hujjatlarida ham ushbu mavzuga alohida urg'u berilmoqda. Hususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2019 yildagi PQ-4354-son qarorida "axborot va raqamli texnologiyalar rivojlanishi hamda zamonaviy umumjahon tendensiyalarni e'tiborga olgan holda axborot-kutubxona sohasini isloh qilishni jadallashtirish" jumlasini keltirib o'tiladi[1].

Vaziyatni boshqarish uchun kutubxonachi mutaxassislari foydalanuvchi hamjamiyatini qondirish uchun

juda zarur bo'lgan muhim kompetensiyalar va albatta raqamli texnologiyalar bilan ishlash malakasiga, "soft skills"ga ega bo'lishi kerak. Sababi, texnologiya kutubxona faoliyati va xizmatlarining barcha darajalariga kirib borgan, va har bir pozitsiyada xodimlardan minimum darajada bo'lsada kompyuter texnologiyalaridan foydalana olishlikni talab etadi. Biroq, bu sohadagi muvaffaqiyat biz hozir bilgan bilimlarimizga kamroq bog'liq, davom etayotgan o'rganishga ya'ni uzluksiz ta'limga ko'proq bog'liq.

Kutubxona sohasida raqamli kompetensiyalar quyidagi yo'nalishlarda muhim rol o'ynaydi:

Axborot resurslarini raqamlashtirish va boshqarish;

Elektron kataloglar va ma'lumotlar bazalari bilan ishlash;

Onlayn foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish;

Raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha foydalanuvchilarga ko'maklashish;

Ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar va platformalarda axborot targ'iboti.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida kutubxona mutaxassislari va talabalarining raqamli kompetensiyalari doimiy rivojlantirilishi kerak. Ularning ijodiy qobiliyatlari va ijtimoiy-alohaviy ko'nikmalari raqamli muhitda kutubxona xizmatlari sifatini oshirishga yordam beradi[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Raqamli kompetensiya-turli texnologiyalardan foydalanish qobiliyati, ularning tanqidiy va baholovchi jihatlarini tushunish, hamda mazmunni boshqarish va muloqot ko'nikmalarini yaxshilash maqsadida texnologiyalardan ijodiy tarzda foydalanishni o'z ichiga oladi (Freiman va boshq., 2017)[3]. Boshqa ta'riflarda raqamli texnologiyalar yordamida raqamli vazifalarni bajarish, kontentni boshqarish, yaratish va ulashish jarayonlarida zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, munosabat, salohiyat va xabardorlik majmuasi sifatida ifodalangan (Khan & Bhatti, 2018; Martzoukou, Fulton, Kostagiolas & Lavranos, 2020)[4]. Eng so'nggi ta'rifda esa raqamli texnologiyalardan xavfsiz, tanqidiy va ijodiy foydalanish – kundalik hayotda va jamiyatda faol ishtirok etish vositasi sifatida ta'riflangan (Sanches, 2022)[5].

Michal Cerny (2021)[6] “Kutubxona ta'limi talabalarining raqamli kompetensiyalari: 2018–2020 yillardagi tadqiqot natijalarini taqqoslash”, va Maria Borbely (2022)[7] “Jamoat kutubxonalari raqamli kompetensiyalarni xaritalash 2019: Turli malakalarga ega kutubxona mutaxassislarning raqamli ko'nikmalariga oid so'rovnoma” mavzusidagi tadqiqotlarida DigComp modeli orqali kutubxona ta'limi talabalarining hamda jamoat kutubxonachilarining raqamli kompetensiya profilidagi o'zgarishlari va darajalari aniqlangan.

Sarbada Pradhan, Avijit Rai (2023) “Kutubxona va axborot sohasi mutaxassislari uchun raqamli ko'nikmalar: qisqacha tahlil” mavzusidagi tadqiqotida kutubxona va axborotshunoslik mutaxassislarning raqamli salohiyati – ya'ni digital capability – nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Raqamli salohiyat tushunchasi, uning DigComp yoki JISC modellar kabi ramkalar asosidagi tarkibiy elementlari (masalan, axborot savodxonligi, raqamli ijod, hamkorlik, farovonlik) ko'rib chiqiladi[8].

Eloy Rodrigues (2024)ga ko'ra raqamli asrda ya'ni axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan dunyoda kutubxonachi ro'li va kutubxonachilik sohasidagi mutaxassislarga bo'lgan talablar ham o'zgarib bormoqda. Raqamli asrda kutubxona hodimlariga qanday malakalar kerak degan savolga olim quyidagicha javob beradi: asosiy qadriyatlar tamoyillar, professional/axborot kutubxona fanlari kompetensiyalari, raqamli/texnologik kompetensiyalar, “soft skills”lar[9]. Bulardan texnologik/raqamli kompetensiyalarni esa quyidagicha tavsiflaydi:

6 ta asosiy elementlar:

Raqamli malaka va samaradorlik (funktional ko'nikmalar);

Axborot, ma'lumot va media savodxonlik (tanqidiy foydalanish)

Raqamli yaratuvchanlik, muammolarni hal eta bilish va innovatsiya (ijodiy mahsulot);

Raqamli kommunikatsiya, hamkorlik va ishtirok etish (ishtirok etish);

Raqamli o'rganish va rivojlanish (rivojlanish);

Raqamli shaxsiyat va farovonlik (o'zi amalga oshirish);

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ishida kutubxona mutaxassislarning raqamli kompetensiyasini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish uchun tahliliy-uslubiy hamda taqqoslov usulidan foydalanilgan bo'lib, u orqali kutubxonachilik, axborotshunoslik sohalaridagi ilmiy adabiyotlar, xalqaro miqyosdagi tashkilot hujjatlari (masalan, ALA, SLA, IFLA, JISC tavsiyalari) asosida raqamli kompetensiyaning nazariy asoslari o'rganildi hamda bir necha necha rivojlangan mamlakatlar tajribasi o'rganilib O'zbekiston sharoitiga mos jihatlar aniqlab chiqildi.

Axborot kutubxona tizimlari mutaxassislarni rivojlantirish uchun turli xalqaro miqyosdagi uyushmalar tomonidan o'rnatilgan turli xildagi kompetensiya turlari standartlari mavjud. Har bir kutubxona yoki tashkilot tuzilmasi,

xusssiyatlaridan kelib chiqib o'z standartlarini taklif etadi. Masalan, Maxsus kutubxonalar assotsiatsiyasi (SLA), Amerika kutubxonalari assotsiatsiyasi (ALA), Onlayn kompyuter kutubxona markazi (OCLC), Kongress kutubxonasi, Tadqiqot kutubxonalarning Kanada Assotsiatsiyasi (CARL), Tadqiqot kutubxonalari assotsiatsiyasi (ARL) va yana ko'plab xalqaro tashkilot, uyushmalar so'nggi yillarda o'zlarining standartlari asosida bir qator kompetensiyalarni taklif qildi. Quyida ularni ba'zilaridan namuna keltiriladi:

Kutubxonachilikning asosiy kompetensiyalari Amerika kutubxona assotsiatsiyalari (ALA)ning yangilangan (2022) standartida [10] 9 bo'lim ko'rinishida quyidagi bandlarni o'z ichiga olgan :

1.Boshlang'ich (asosiy) kutubxonachilik bilimlari;

2.Axborot resurslari;

3.Umrbod ta'lim va uzluksiz malaka oshirish;

4.Boshqaruv va ma'muriy faoliyat;

5.Yozma bilim va axborotni tizimlashtirish;

6.Ma'lumotnoma va foydalanuvchilarga xizmat

ko'rsatish;

7.Tadqiqot va dalillarga asoslangan amaliyot;

8.Ijtimoiy adolat;

9.Texnologik bilim va ko'nikmalar

Texnologik bilim va ko'nikmalar bandi quyidagicha keng izoh etiladi:

9A. Kutubxona xizmatlari va resurslaridan foydalanish hamda ularni yetkazib berishni qo'llab-quvvatlovchi tegishli texnologiyalar va ularning qo'llanilish sohalarini aniqlash.

9B. Kutubxona xizmatlari va resurslariga texnologiyalarni qo'llashda yuzaga keladigan etika va madaniy qadriyatlar bilan bog'liq omillarni tushunish va ularda yo'nalish topa olish; bu texnologiyalarning kutubxona amaliyoti va jamoa a'zolariga ko'rsatadigan ta'sirini inobatga olish.

9C. Mavjud va rivojlanib borayotgan texnologiyalarni muntazam ravishda baholab borish; ularning kutubxona xizmatlari va resurslariga ko'rsatadigan ta'sirini foydalanish imkoniyati, amaliyotda qo'llanilishi, barqarorligi va samaradorligi nuqtayi nazaridan tahlil qilish.

Birlashgan Qirollikning Qo'shma Axborot Tizimlari Qo'mitasi (JISC) raqamli kompetensiyani quyidagicha ta'riflagan: “raqamli kompetensiya — bu zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun shaxslar va tashkilotlarga zarur bo'lgan ko'nikmalar va munosabatlardir” (JISC, 2019)[11].

JISC raqamli salohiyatni shakllantirish uchun olti asosiy tarkibiy qismini quyidagicha belgilagan:

Raqamli bilim va unumdorlik (functional skills) – texnologiyalar bilan samarali va ishonchli ishlash ko'nikmalari; Axborot, ma'lumot va media savodxonligi (critical use) – axborotni izlash, tahlil qilish va tanqidiy baholash;

Raqamli ijodkorlik, muammolarni hal qilish va innovatsiya (creative production) – yangi raqamli mahsulotlar yaratish va kreativ yondashuv;

Raqamli muloqot, hamkorlik va ishtirok (participation) – onlayn muloqot qilish, guruhda ishlash va raqamli jamiyatda faol qatnashish;

Raqamli o'rganish va rivojlanish (development) – o'z-o'zini ta'limga yo'naltirish, yangi raqamli vositalarni o'zlashtirish;

Raqamli identitet va raqamli farovonlik (self-actualizing) – raqamli muhitda o'z shaxsini tanitish, xavfsizlik va ruhiy salomatlikni saqlash.

Xalqaro tashkilot, uyushmalar va kutubxonalarning standartlarini, hujjatlarini tahlil etish orqali bugungi kunda zamonaviy kutubxona mutaxassisining kasbiy, raqamli kompetensiyalarini nazariy asosini o'rganishimiz mumkin. Rivojlangan axborot infratuzilmasiga ega davlatlar tajribasini

o'rganish orqali esa, mahalliy sharoitimizga mos amaliy yechimlarni ham aniqlab olishimiz mumkin

Tahlil va natijalar. Kutubxona mutaxassislarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish: zamonaviy yondashuvlar va amaliy usullar haqida so'z yuritir ekanimiz avvalosi raqamli kompetensiya modellarini ham tahlil etib chiqishimiz lozim. Xo'sh, bugungi kunda qanday tendensiyalar

mavjud? Raqamli kompetensiyaning zamonaviy modellari va bir biridan afzalliklari nimada?

Bugungi kunda kutubxona mutaxassislari, pedagoglar, IT mutaxassislar va boshqa professional guruhlar uchun raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish va baholashda asosiy mezonlar sifatida qo'llaniladigan bir necha mashhur kompetensiya modellari bor. Quyida jadval ko'rinishida ularni ayrimlariga sharh keltiriladi:

Jadval 1. Raqamli kompetensiya modellari

№	Model	Asosiy sohalar	Afzalliklari
1	DigComp	5 soha, 21 kompetensiya, 4 darajaga taqsimlanadi	Keng qo'llaniladi, aniqligi yuqori
22	UNESCO ICT-CFT	6 yo'nalish, 18 kompetensiya, 3 bosqichli yondashuv	global ta'lim sohasi vakillari uchun mos, ta'limga yo'naltirilgan
33	JISC	6 ta asosiy soha	Professional rivojlanishga qaratilgan Kutubxonachilar uchun dolzarb
44	ISTE	Raqamli fuqarolik va o'rgatuvchi rollar	Ta'lim tizimiga chuqur integratsiyalashgan
55	Nordic	Aniq darajalar belgilanmagan. bilim, ko'nikma va kompetensiyalarga e'tibor qaratilgan	Madaniy va axloqiy jihatlarni qamrab oladi Raqamli etikaga urg'u beradi

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kutubxona mutaxassislarining raqamli kompetensiyalarini doimiy rivojlantirib borish dolzarb mavzu va bu borada mavjud holatni, zamonaviy xorijiy tarjibani tahlil etish orqali respublikada yetishtirilayotgan soha mutaxassislarini raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlashda amaliy usullar va yondashuvlardan foydalanishimiz mumkin. Qolaversa, tahlil natijasida mahalliy sharoitga mos raqamli kompetensiya standartini, modelini ishlab chiqishimiz va amaliyotga joriy etishimiz mumkin bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Kutubxonachi kadrlarning kasbiy kompetensiyalari ularning ish joylaridagi profilarni aniqlab beradi. XXI asr zamonaviy dunyoda esa kutubxona mutaxassislarining raqamli kompetensiyaga ega bo'lishlari naqadar muhim va zarur ekanligini ko'rishimiz mumkin. Kutubxona mutaxassislarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish uchun esa rasmiy o'quv dasturlari, o'z-o'zini o'qitish, uzluksiz ta'lim, turli sohalaridagi mutaxassislar bilan hamkorlik qilish va amaliy ish

tajribasi orqali natijaga erishish mumkin. So'nggi tendensiyalar, texnologiyalar va amaliyotlardan xabardor bo'lib boorish esa har bir soha mutaxasisi uchun zamonaviy kasbiy muhitda dolzarbdir. Mazkur xulosadan kelib chiqib quyidagi amaliy takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

Raqamli kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha uzluksiz kasbiy rivojlanish kurslarini tashkil etish;

Jahon tajribasiga tayangan holda, O'zbekiston kutubxona sohasiga moslashtirilgan raqamli kompetensiya modelini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

Soha mutaxassislarini zamonaviy texnologik vositalar bilan ishlashga tayyorlash (sun'iy intellekt, raqamli katalog, turli xildagi axborot tizimlari bilan ishlash);

Yetakchi xorijiy kutubxonalar, universitetlar va axborot markazlari bilan hamkorlikda seminarlar, amaliyotlar va treninglar tashkil etish, sohadagi yangiliklardan xabardor bo'lib borish;

Kutubxona foydalanuvchilari uchun qulay raqamli xizmatlarni joriy qilish orqali raqamli madaniyatni oshirish.

ADABIYOTLAR

1. PQ-4354-сoн 07.06.2019.O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida
2. Tammara, A.M.(2007), "A curriculum for digital librarians: a reflection on the European debate", New Library World, Vol. 108 No. 5/6, pp. 229-246. <https://doi.org/10.1108/03074800710748795>
3. V.Freiman, J.Godin, F.Larose, M.Léger, M.Chiasson, V.Volkanova, M.J.Goulet Towards the life-long continuum of digital competences: Exploring combination of soft-skills and digital skills development INTED2017 proceedings(2017), pp.9518-9527
4. Khan, S. A., & Bhatti, R. (2018). Barriers in Developing Digital Competencies: Exploring Practicable Solutions for University Librarians in Pakistan. Pakistan Library & Information Science Journal, 49(3).
5. Sanches, T. (2022). Digital fluency and ethical use of information: the role of higher education librarians. Qualitative and Quantitative Methods in Libraries, 11(3), 473-487.
6. Cerny, M. (2021). Digital competencies of library education students: A comparison of research results from 2018 to 2020. [Education Sciences, v11 Article 729 2021]
7. Borbély, M. (2022). Public Library Digital Competency Mapping 2019: A Survey on Digital Skills of Library Professionals With Different Qualifications. [Sec. Digital Learning Innovations Volume 7 –2022] <https://doi.org/10.3389/feduc.2022>
8. Pradhan, S., & Rai, A. Digital capability for library and information science professionals: a narrative discourse. digital literacy, 145.
9. Rodrigues, E. (2024). What skills do library staff need in the digital age? European Bureau of Library, Information and Documentation Associations (EBLIDA) Annual Council and Conference.
10. American Library Association (ALA). (2022). ALA Core Competencies of Librarianship.
11. JISC (2022). Digital capability. <https://digitalcapability.jisc.ac.uk/what-is-digital-capability>.